

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning № sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 5 yil

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Pediatriya va bolalar ovqatlanishi			
O'quv dastur nomi	«Pediatriya»			
O'qish turi	Ixtisoslashtirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Axmedova I.M., Nazarova I.D., Salixova M.Z.			
Siklning umumiy soati	504 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d.Axmedova I.M.		t.f.n, dosent Nazarova I.D.	assistent Salixova M.Z.	
Maqsad		Vrachlarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish asosida, sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan xolda, bolalar kasalliklarini zamonaviy tashxislash, davolash va profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirib, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda pediatriklarni tayyorlash.		
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent		Pediatriklar		
Sikl vazifalari		1. Shifokorlarga bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish, sog'lom bolalarni dispanserizatsiyasi tamoyillari, kasalliklarni oldini olish maqsadida tibbiy sanitariya va profilaktik yordamni tashkillashtirish borasidagi bilimlarni singdirish; 2. Shifokorlarda isbotlangan tibbiyot asoslarini bolalar kasalliklarini davolashda amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish;		

	3. Shifokorlarga bolalar kasalliklarini zamonaviy davolash va tashhislash usullarini o'rgatish; 4. Pediatriyada shoshilinch xolatlarda bolalar axvolini baxolash, tashxislash va shoshilinch davo choralarini qo'llash bo'yicha vrachlar bilimlarini shakllantirish.
Sikl tarkibi	1-modul: Sog'liqni saqlash tizimi birlamchi bo'g'imida davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirishga yangicha yondashuv 2-modul: Go'dak yoshidagi bolalarga xos kasalliklarni zamonaviy talqini 3-modul: Nafas a'zolari kasalliklarini zamonaviy tashhislash va davolash tamoyillari 4-modul: Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini yangi texnologiyalarga asoslangan tashhislash va davolash usullari 5-modul. Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tashhislash va davolash usullari 6-modul. Bolalarda siydik chiqarish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tashhislash va davolash tamoyillari 7-modul: Bolalarda allergik kasalliklar va immunodefisit xolatlarni tashhislash va davolashga zamonaviy yondashuv. 8-modul; Bolalarda xavfsiz immunoprofilaktikaning zamonaviy talqini 9-modul: Pediatriyada shoshilinch xolatlarni tashhislash va davolashga zamonaviy yondashuv 10-modul: Pediatriyada sindromal davolashga yangicha yondashuv 11-modul: OIV-infeksiyasi/OITS. Yangi milliy protokoli bo'yicha
O'qish bazasi: 1. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy markazi 2. Toshkent shaxar ko'p tarmoqli shifoxonasi	Barcha zamonaviy tekshirish, davolash va lavboratoriya jixozlari bilan ta'minlangan.
	

